• Ular noto‘g‘ri ishlayotgan MUNOSABAT vositasida qolib, o‘z MAQSADlariga erishish fikridan voz kechishi mumkin.

• Yoki ular, umuman, MUNOSABATdan voz kechishlari mumkin.

Noto‘g‘ri ishlayotgan munosabatda qolish eng kam kuch talab qiladi, ammo birgalikdagi maqsadlarga erishish istagini qondirmaydi. Bu misol bir konseptual sohadan boshqasiga o‘tkazilgan inference (xulosa chiqarish) namunasi sifatida qaralishi mumkin. Ana shunday moslashuvlar orqali biz sayohatga oid bilim va fikrlashni sevgi munosabatlarini talqin qilish uchun qo‘llaymiz.

**Xulosa.** “Metafora” termini pedagogik muloqotda yuzaga keladi va kognitiv mexanizm sifatida ta’lim jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Konseptual metafora terminini muhokama qilishni yakunlar ekanmiz, uning lingvomadaniy tabiati borligini va uni mamlakatimizning ijtimoiy hayotidan, ayniqsa, ta’lim tizimidan, uning an’analaridan va xalqimizning ongidan ajratib bo‘lmasligini ta’kidlash muhimdir. Bu yerda inson faktori, shuningdek, metaforaning yaratuvchisi bo‘lgan muallifning shaxsiyati ham juda muhimdir”.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). S.Shermamatova. O‘zbek tilida ma’no ko‘chish usullari. Metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik. “Oriental Renaissanse”, 2023.

(2). J.Lakoff. The contemporary theory of metaphor. 1993.

(3). S.Muminov. Konseptual metafora va uning o‘zbek va ingliz tillarida namoyon bo‘lishi. “Innovative development and educational activities”, 2023.

(4). J.Lakoff, M.Jonson. Conseptual metaphor in everyday language. Shaping Enterpreneurship Research, 2020.

(5). Z.Kovekses. Conseptual metaphor theory: Some criticisms and alternative proposals. Annual Review of Cognitive Linguistics, 2008.

**Hidoyatova Aziza Tal’at qizi (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti; e-mail: khidoyatovaaziza@gmail.com)**

## YAN KVI JA IJODIDA KVANJU QO‘ZG‘OLONI TASVIRI

***Annotatsiya.*** *1980-yilning may oyida Janubiy Koreyaning Kvanju shahrida bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olon xalq hayotiga katta ta’sir qildi. Ijod ahli urushni har doim turli xil rakursda tasvirlashadi. XX asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan yozuvchi Yan Kvi Ja o‘z asarlarida urush, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni mamlakat aholisining turmush tarziga, ruhiyatiga qanday ta’sir o‘tkazgani haqida ma’lumot beradi. Mazkur maqolada Yan Kvi Janing “Sayohatchi sichqon” hikoyasi orqali qo‘zg‘olonning qahramon hayotiga ta’sirini ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, tahlilga insonlar, xususan, qahramon holati, ruhiyatini ochishda yozuvchining badiiy detallarni mahirona qo‘llashi tortilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Kvanju, qo‘zg‘olon, zulmat, hid, sichqon, tabiat, o‘rmon, ruhiyat, harbiy boshqaruv.*

**Хидоятова Азиза Талъат қизи (Высшая школа корееведения, базовый докторант Ташкентского государственного университета востоковедения; e-mail: khidoyatovaaziza@gmail.com)**

## ИЗОБРАЖЕНИЕ ВОССТАНИЯ В КВАНДЖУ В ТВОРЧЕСТВЕ ЯН КВИ ДЖА

***Аннотация.*** *В мае 1980 года в городе Кванджу, Южная Корея, произошли восстания, которые оказали огромное влияние на жизнь народа. Писатели всегда описывают войну с разных точек зрения. Автор XX века Ян Кви Джа в своих произведениях затрагивает темы войны и социальных, политических изменений в стране, а также их влияние на образ жизни и психику населения. В этой статье рассматривается влияние восстания на жизнь главного героя в рассказе Ян Кви Джа «Бродячая мышь». Кроме того, в статье анализируется, как мастерски писатель использует художественные детали для раскрытия психологии героев, в частности, для отображения состояния героя.*

***Ключевые слова:*** *Кванджу, восстание, тьма, запах, мышь, природа, лес, психика, военное руководство.*

**Khidoyatova Aziza (Graduate School of Korean Studies, PhD student of Tashkent State University of Oriental Studies; e-mail: khidoyatovaaziza@gmail.com)**

## THE DEPICTION OF THE GWANGJU UPRISING IN THE WORKS OF YANG KWI JA

***Annotation.*** *In May 1980, the uprising in the city of Gwangju, South Korea, had a significant impact on the lives of the people. Writers have always portrayed war from various perspectives. The 20th-century author, Yang Kwi Ja, in her works explores how the war and social-political changes in the country affected the lifestyle and psyche of its people. This article examines the impact of the uprising on the life of the*

*protagonist in Yang Kwi Ja's story "A Vagabond Mouse". Furthermore, the article analyzes how the writer skillfully uses literary details to portray the psychological state of the characters, particularly focusing on the hero's condition.*

***Keywords:*** *Gwangju, uprising, darkness, smell, mouse, nature, forest, psyche, military command.*

**Kirish (Introduction).** Koreya Respublikasida bo'lib o'tgan Kvanju qo'zg'oloni harbiy boshqaruv davriga nisbatan xalq bildirgan munosabat edi. O'z navbatida, qo'zg'olon sabablari, mohiyati, salbiy oqibatlari ijod ahli uchun yangi mavzularda asarlar yaratishga turtki berdi. Jumladan, Chxve Yunning "U yerda yolg'iz barg hayallamoqda" qissasida Kvanju qo'zg'oloni tasviri beriladi. Mavhum makon va zamonda aks ettirilgan qo'zg'olonni bostirish jarayonida tinch aholiga qarata otilgan o'q qizning ko'z o'ngida onasini o'limga mahkum qiladi. Ruhiy jarohat olgan qiz bir umr o'z dunyosiga g'arq bo'ladi. Odamlar uni tentakka chiqarib qo'yishadi. Ichki monologlarda onasini yo'qotgan qizning iztiroblarini yoritgan yozuvchi, aslida, qo'zg'olon haqida lom-mim deyishga jur'at etmagan xalq ahvolini ko'rsatadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Tarixdan ma'lumki, Kvanju qo'zg'oloni, unda tinch aholining o'qqa tutilishi sabablari haqida Chon Du Xvan boshqaruvi yakuni, ya'ni, 1988-yil fevral oyiga qadar nafaqat ijtimoiy sahifalarda, hatto adabiy jarayonlarda ham bir so'z aytilmadi. Adabiyot atomdan kuchliligini ko'rsatib, xalq ongiga ta'sir qilishidan qo'rqqan hukumat barcha ommaviy axborot vositalari, yaratilayotgan asarlarni qattiq nazorat ostiga oldi. Chxve Yun esa bu mavzuda ilk bor qalam tebratgan ijodkorlardan sanaladi.

"Adabiyotda, uning biror bir turida, janrida badiiy kashfiyotlar yaratishni oldiga maqsad qilib qo'ygan so'z san'atkori betakror iste'dodga va o'zligini anglash darajasiga ega bo'lishi lozim. Shundagina yozuvchi o'z fe'l-atvoridan kelib chiqib, alohida xususiyat va belgilarga ega xarakter yarata oladi. Yozuvchi o'z uslubi bilan boshqalardan qanchalik ajralib tursa, u yaratgan obrazlar, xarakterlar ham originalligi bilan alohidalik kasb etadi" [3].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Koreys adabiyotida yangi fikrlash tarzi va tasvir yo'sini bilan hikoyanavis yozuvchi sifatida tanilgan Yan Kvi Ja o'zining hikoyalari uchun 1980-yillar mamlakatdagi ijtimoiy muhit va tarixiy voqelarni asos qilib oladi, xalqining og'ir va qiyin turmush tarziga alohida e'tibor qaratadi. Ko'z o'ngida kechgan hodisalarni qog'ozga tushirar ekan, adiba kitobxonlarga o'zi yaratgan qahramonlar siymosida ayanchli haqiqatni ko'rsatishga harakat qiladi. Shu o'rinda adabiyotshunos olima S.E.Kamilovaning "...mahalliy ichki urushlar haqidagi hikoyalar insonning "jarohat tajribasi"ni shaxsan tatib ko'rgan va unga "ma'naviy" jazo olganlik pafosi bilan sug'orilgan..." [2;21-b.], degan fikrlari o'z tasdig'ini topadi. "...mahalliy ichki urushlar" degandi biz ichki qo'zg'olonlarni nazarda tutamiz.

Adibaning "Zang", "Sichqon", "Quti", "Umid", "Sayohatchi sichqon" kabi hikoyalari qahramonlari hech bir ijtimoiy guruhga qo'shila olmaydigan, o'z tashvishlari girdobiga o'ralashib qolgan insonlardir. Bu qahramonlar har kuni erta tongdan shom tushguncha ishlasalar-da, hamkasabalari bilan muloqotga kirisha olmaydilar, bu esa, o'z navbatida, ularning ruhiy zo'riqishiga sabab bo'ldi. Mana shunday bezovta va tashvishlarga to'la hayotda yashayotgan insonlardan biri "Sayohatchi sichqon" hikoyasi qahramoniga aylandi.

Hikoya Vonmidon dahasida yoz tunlarining birida to'rt kishining do'kon oldida o'rnatilgan bambukdan yasalgan chorpoyada may ichishi hamda *paduk* (koreyscha shashka) o'yini bilan boshlanadi. Har safar bu yerda yig'ilganlar – qog'oz do'koni yurituvchisi janob Ju, fotostudiyada faoliyat yuritayotgan janob, Kangnam ko'chmas mulk shirkati egasi janob Pak, "Birodorlar" supermarketi nazoratchisi janob Kimlar avval rosa *makkoli* (guruchdan tayyorlanadigan koreys milliy sharobi) ichishadi, so'ng turli xil voqea-hodisalarni muhokama qilishadi. Janob Ju har safar fuqarolar urushi bilan bog'liq turli xil voqealarni gapirib beradi, hikoya sevgi haqidagi qo'shiqqa ulanadi. Barcha quloqni qomatga keltirib qo'shiq kuylab bo'lishi bilan "O'sha yigit" hikoyasi boshlanadi. To'rt kishi o'rtasida bo'lib o'tgan dialog shunchaki oddiy so'zlashuv emas, balki hikoya qahramoni bilan kitobxonni tanishtirish uchun qo'llanilgan kirishga o'xshaydi. "Davr qahramoni qiyofasini badiiy adabiyotda "tiriltirish", ya'ni, dialoglar orqali ularning qalbiga quloq sola bilishi yozuvchining yuksak mahoratidan darak beradi. Insonning ruhiy dunyosi o'zaro suhbatlarda, tortishuvlarda, dialog va monologlar vositasida ochiladi" [1;127-b.]. Darhaqiqat, shirakayf to'rt kishi suhbatida hikoya bosh qahramoni haqida dastlabki tasavvur hosil bo'ladi:

" – Jangdebong ostida bir g'or bor, o'sha yerda yashar ekan", – dedi janob Pak ishonch bilan. Jangdebong Vonmisan tog'ining eng baland cho'qqisidir.

" – Nima deyapsiz avliyo (Koreya Respublikasining ayrim hududlarida shevada avliyo – aka ma'nosida qo'llaniladi)? Nega g'orda chidab kun kechirishi lozim?".

"–Odamzod har qanday joyda moslashib yashab ketadi. O'tgan safar mijozimning aytishicha, Yokkokka (Puchon shahrida metro bekati nomi) tushish yo'lagida tashlandiq chxoga (tomi somon yoki

qamish bilan yopilgan kulba)da u kishini ko‘rgan inson bor ekan. Mavze odamlari bizlarga notanish bo‘lganligi sababli, u yerda yashirinib yashayapdimi yoki yo‘q, bilmaymiz”.

“ – Biz o‘tgan yili shunaqa paytda Vonmisan tog‘ining hamma joyidan axtarib chiqdik. Yo‘q edi. Shu atrofda chodir o‘rnatayotgan odamlar ham uni ko‘rmaganligini aytishdi. Allaqachon qayergadir jo‘nab ketgan bo‘lsa kerak”.

“ – Avliyo, u qanday qilib tog‘ ichiga kirib ketgan? Ovqatni ham oz iste’mol qilarkan, ikkita farzandi ham bor deyishadi”.

“ – U, aslida, Seulda qaysidir kompaniyaga qatnab ishlaydi, faqat maosh bilan hayot kechiradi, universitetni tamomlagan, tashqi ko‘rinishi ham binoyidek. Anavi Nam Kungvon (Janubiy koreyalik mashhur aktyor)chalik bo‘lmasa-da” [6;130-b.].

Yigit avval haftada ikki marotaba toqqa chiqa boshlagan bo‘lsa, endi har kuni ishdan chiqib, tog‘ga yo‘l oladi, so‘ng uyiga qaytadi. Uning toqqa chiqishida ham o‘ziga xos ramziylik mavjud. Ma’lumki, koreys xalqi uchun tog‘ yuksaklik ramzi. Shu sababli maishiy hayot ikir-chikirlari, odamlarning yolg‘onlaridan charchagan yigit tog‘da o‘zi qidirgan hayot mazmunini topdi, o‘zini erkin his qildi. Ertalab yugurish bahonasida buloqdan bir idish suv olib kelish ham uni qoniqtirmadi. Quyosh botishidan oldin toqqa chiqish maroqli edi. Sharqdan tog‘larga enayotgan qorong‘ulik qa’rida yigit uyga qaytish uchun yo‘l izlamas edi. Aynan mana shu tasvirda adiba yigitning oldida turgan katta muammoning yechimi yo‘qligiga ishora qiladi:

“Zulmat cho‘kkan o‘rmonda u yo‘l tanlamas edi, faqat tog‘ yon bag‘ridan ehtiyotkorlik bilan tushish o‘yinini o‘ylab topdi. Jangdebongning faqat bir tarafidan yuqoriga ko‘tarilsa ham, pastga tushsa ham to‘p-pa-to‘g‘ri Vonmidongdan chiqib kelardi. Vonmidong – Vonmisan tog‘i bilan o‘ralgan keng sayhonlikka o‘xshardi” [6;133-b.].

Yan Kvi Janing deyarli barcha hikoyalarida syujet voqealari bir o‘zanda kechadi, mantiqan ketma-ketlikda beriladi. Ammo “Sayohatchi sichqon” hikoyasida voqealar bir maromda davom etmaydi. Hikoya avvalida berilgan dialoglarda bosh qahramon bilan tanishgan kitobxon, hikoya ichida hikoyada yigitning tabiat qo‘ynida o‘ziga panoh topishi lavhalari bilan tanishadi. So‘ng muallif yana to‘rt kishining dialogiga qaytadi. Bunday yo‘l tutish xuddi bosh qahramon – yigitning qalb iztiroblari sabablarini yanada chuqur ochishga o‘xshaydi:

“ – Zaboni bo‘la turib, uyda churq etmay yurish oqibatida jinniga aylangan bo‘lsa kerak”.

“ – Unaqada ruhiy kasal ekan-da! Aqldan ozgan bo‘lsa kerak!”

“ – Yo‘q, aqldan ozgan emas. Sen hali yoshsan, shuning uchun bilmaysan, ammo shunday odamlar toifasi mavjud. Men o‘n yildan beri suratkash bo‘lib ishlayman, boshimga tashlangan gazlama ichida linza orqali mijozlar yuzini sinchkovlik bilan kuzatganimda, tovlamachilarni ajrata olaman”.

“ – Avliyo, siz ham shu fikrdamisiz? Tashqaridan aqldan ozgan ko‘rinadi, gapga solsangiz, es-hushi joyida. Kiyinishi ham binoyidek, lekin diqqat bilan nazar solsangiz, aqldan ozganlar ko‘p ekan” [6;136-b.].

Seuldek katta shahar idorasida ishlaydigan yigit atrofdagilar bilan murosa qila olmaydi, har qancha harakat qilsa ham maqsadiga erisha olmaydi. Shuning uchun bu toifadagi odamlar hech bir guruhga qo‘shilib keta olmaydi. Ya’ni ular marginal (marginal – atama ilk bor XX asrning 20-yillarida amerikalik sosiolog R.Park tomonidan mulatlarga nisbatan qo‘llanilgan. Olimning fikricha, jamiyatda egallab turgan mavqeyiga ko‘ra, o‘ziga xos xususiyatlarga, ya’ni bezovtalik, tajovuzkorlik, shuhratparastlik) odam xarakteriga ega. Moryong Ki fikriga ko‘ra: “Bunday odamlar bir vaqtning o‘zida turli madaniyatli guruhlarga mansub, shu bilan birga, bir nechta madaniyat va guruh ta’siri ostida bo‘lsa ham, hech biriga to‘liq tegishli emas” [5; 77 – 82-b.]. Bunday qahramonlar adibaning “Zang”, “Quti”, “Sichqon”, “Umid” kabi hikoyalarida ham uchraydi.

Uzzu kun markazda ishlab, shahar tashqarisida istiqomat qiladigan, ammo jamoaga qo‘shilib keta olmaydigan, ijtimoiy hayotga moslashmagan, jamiyatdan uzilib qolgan bunday odamlar xavotir, qo‘rquv va tashvishlar girdobida qolishgan.

Yan Kvi Ja hikoya bosh qahramoni xarakterini ochib berishda ikki shaklga alohida e’tibor qaratadi: ikkinchi darajali qahramonlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan dialog hamda qahramon xayolida kechayotgan monolog. Yigitning oilasidan kechib tog‘larda yurishi tasvirida ichki monolog shunday yangraydi:

“U kechikib, havoyi ishlarga beriladigan darajada ahmoq emas edi. Unga qarab turgan oila a’zolari soni allaqachon uch nafarga o‘zgardi. Endi besh yoshga to‘lgan to‘ng‘ich qizi pianino sotib olib berishni iltimos qilardi. Ayoli ham, barmoqlari odatdagidan uzun, yetarlicha qobiliyatiga ham borga o‘xshaydi, nima qilamiz, deyishini qo‘ymasdi. Uning bir oylik to‘liq maoshi, hatto kichkina pianino sotib olishga ham yetmasdi. Tez orada egalik huquqini olishi mumkin bo‘lgan uy uchun ayoli “Tilla uzuk” tashkilotiga pul qo‘-

yardi. Qachonlardir tugaydigan..."Tilla uzuk" tashkilotidan qarz bo'lmaslik, uzun barmoqli qizini voyaga yetkazish uchun ahmoqona ishlarni qilmasligi kerak" [6;134-b.].

Muallif ichki monolog orqali keskin va noqulay vaziyatlarda qahramonning o'z-o'ziga, oilasiga bo'lgan munosabati, dunyoqarashini ochib beradi. Ma'lumki, inson har doim ezgulik va yovuzlik kabi ikki his o'rtasida kurashadi. Adiba ham o'z qahramonini ana shu ikki his o'rtasida sinovdan o'tkazadi. Hikoya rivojining goh odamlar orasida dialog ko'rinishida, goh o'rmonda monolog ko'rinishida kechishi adibining o'ziga xos uslubidan darak beradi.

Muallif o'rmonda quyosh botishi tasvirini chizadi. Qahramon va o'rmon kabi ikki komponent hikoya ichida hikoyaning fenomeni tarzida yangraydi. Mumtoz davr ona tilida yaratilgan ilk she'riyat – sijolarda bog' mukammal obraz darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, zamonaviy nasr – adiba hikoyasida o'rmon ana shunday obrazlar qatoriga kiritiladi. Qadimgi Koreyada bog' alohida xususiyat kasb etgan. Eng ko'rkam va maydoni jihatidan katta bog' egasi – qirollar boy hisoblangan. Bog'lar obrazi she'riyatga ham ko'chgan. Ahamiyatli jihati shundaki, inson qo'li bilan yaratilgan bog'larda o'simliklar, daraxtlar o'z holicha unib-o'sgan, ularni parvarishlash yoki payvandlash mumkin bo'lmagan, bu bog'ning o'ziga xos go'zalligini ta'minlagan. Bog' koreys ijodkori uchun ilhom manbayiga aylandi, tabiat bilan yolg'iz qolish imkonini berdi.

Zamonaviy nasrda bog' obrazi o'rnini koreys o'rmonlari egalladi. Adiba hikoyasidagi o'rmon "harbiy boshqaruv" davri voqeligining umumiy ramziga qiyoslanadi, quyosh botib, o'rmonga cho'kkan zulmat bir qarashdi sokindek ko'rinadi, adibaning bu holatni *...o'rmon sirli xonadek osoyishta edi* [6;153-b.], deyishida erksiz insonning ertasi, kelajagi mavhumligiga ishora yotadi:

"Tez orada zulmat qoplaydi. Jigarrang gulqog'oz rang o'rnini qora parda qoplaganida, barcha tirik mavjudotlar o'z inlariga kirib ketadilar. Uning oyog'i ostida chiriyotgan barglar shitirlaydi. Daraxtga suyanib, nurlanayotgan olis osmonga tikildi. Sababsiz eti jimirladi. Tog' qushlarining sayrashidan tinchigan tevarak-atrof jim-jit edi, sukunat unga azob berayotgandek tuyuldi" [6;153-b.].

Tunga nisbatan qo'llanilgan "Zulmat", "qora parda", "chiriyotgan barglar", olis osmon", "jim-jit", "sukunat" kabilarda yigitning tushkun kayfiyati anglashiladi. O'tayotgan umrning ma'nisizligi, hayotning ayanchli holati, inson fojiasi – yigitning qalbida xuddi chuqur quduq kabi gavdalanadi.

"Qalbi quduq misol, liq to'la quduq sal shamol epkiniga ham toshib ketishi muqarrar. Qalbidagi suv toshib chiqib ketmasligi uchun u ehtiyotkorlik bilan o'rmon ichra kezadi. Harchand harakat qilsa ham, chuqur tunnel kabi cho'zilib ketgan o'rmonning oxiri ko'rinmasdi" [6;154-b.].

Hikoyada muallifning milliy xarakter yaratish nuqtayi nazari aksi sado beradi: asar qahramoni – yigitning ichki ruhiyati ishonarli tasvirlangan, bir vaqtlar ajdodlari Tangun, Jumong kabi mard, botir bo'lgan "avlod" vakili uni ta'qib etayotgan qo'rquv, iskanjalar sabab:

"Ko'p odamlar yig'iladigan joylarga tashrif buyursa, yuragi qattiq urib ketardi. Tirjayib turgan oppoq tishli jonzotning faryodini eshitishdan qo'rqardi. Yo'l so'rash uchun yon tomonidan turtgan yo'lovchi ko'ziga xuddi qochib ketayotgan *bo'ri* kabi taassurot uyg'otdi... xayolida takror-takror shu manzara gavdalanadi" [6;144-b.].

Yigit qiyofasidagi millat o'zini, o'zligini yo'qotmoqda. Bosh qahramonga xos rahmdillik, oliyjanoblik, mehribonlik kabi insoniy fazilatlar o'rnini qo'rquv, vahima, mutelik egallamoqda. Yigit qiyofasida Kvanju qo'zg'olonida ishtirok etgan millat vakillarining o'z vatandoshlari tomonidan (bu yerda namoyishda ishtirok etganlarning barchasi Prezident buyrug'iga ko'ra, milliy xavfsizlik vakillari tomonidan ayovsiz jazoga tortilishi nazarda tutilgan) ta'qib qilinishi aks ettiriladi:

"O'tgan bahorda akatsiya gulidan bol yig'ish uchun asalari uyalari qo'yilgan edi. Tasodifan uyaga ko'zi tushgan yigit qorayib turgan yuzlab, minglab asalarilardan cho'chib, orqaga tisarildi. Har bir kvadratmetrga qo'yilgan yigirmadan ortiq uyalarning barchasida asalarilar to'dasi qorishib yotardi. Bolakay tashlab ketgan shirinlikka yopishgan chumolilar to'dasi, yo'l chekkasidagi ko'cha yoritgichlari atrofida uymalanayotgan qisqaumrlilar (bir yoki bir necha kun ko'radigan hasharotlar otryadi) galasiga ko'zi tushishi ham dahshatli edi. Sonlarning ko'pligi, kattaligining o'zi ham tahdidli edi" [6;154-b.].

O'z yurtida ojizlik va zulm, xo'rlik va haqoratlarga uchragan qahramon botinida kechayotgan mutelik "asalarilar uyasi", "chumolilar to'dasi", "podenkilar galasi"da voqelanadi. Har uchta ko'rinishda xalqni namoyishga undagan kayfiyat, norozilik, so'ng qo'rquv va tahdid davr fojiasidan darak beradi. Muallif insonga xos murakkab ruhiyatni ochishda faqat qalb ko'zi bilan ilg'ash mumkin bo'lgan manzarani mohirona chizishda davom etadi:

"Zaharli kuya paydo bo'libdi. Uchta-to'rtta emas, o'nminglab kuya o'rmonni qop-qora rangga bo'yab, atrofda uchib yurganmish. Ular kattaligidan ko'rshapalak to'dasi kelyapdi, deb o'ylashgan. Olg'a bir qadam ham siljiy olishmabdi. Har tomonga zahar kukunlarni sochish bilan birga nur taratarmish. Aytishla-

richa, bunday ulkan zaharli kuya to‘dasi haqida ilgari eshitishmagan, hatto ko‘rishmagan ham. Qop-qora, to‘da-to‘da bo‘lib uchib yurgan zaharli kuyani bir tasavvur qilib ko‘ring. O‘ta g‘alati, ham dahshatli emasmi?” [6;149-b.].

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Hikoya bosh qahramoni shaxsni chegaralaydigan qolipdan chiqishga urinayotgan, ammo buning uddasidan chiqa olmayapgan inson obrazidir. Adiba o‘z ijodiy niyatini berishda, yashash ma’nosini izlayotgan obrazni shakllantirishda turli badiiy vositalardan unumli foydalanganligi aniq bo‘ladi. Xususan, muallif o‘z badiiy maqsadini ifodalashda rus olimasi R.E. Kipkeyeva ta’biri bilan aytganda: “...birinchidan, odamzodning tabiatga tirik mavjudot, darddosh sifatidagi murojaati, ikkinchidan, peyzajning inson ko‘nglidagi isyon, buyuk ehtiroslar ramzi sifatidagi o‘rni, uchinchidan, ekzotik manzillar va ekzotik turmush sari o‘z idealini izlab ketayotgan shaxs” [3; 25-b.] kabi xususiyatlar nuqtayi nazaridan yondashadi. Yan Kvi Ja ham koreys adabiyotida azaldan mavjud, inson va tabiat uyg‘unligi, munosabatida xalq hayotining mazmunini keng mushohada etadi. Hikoya zamiriga yashirin ma’nolarni anglash kitobxondan davr tarixini yaxshi bilishni talab etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). Абдуллаев Х. Ҳозирги ўзбек романларида талқин муаммоси. Тошкент, 2020.

(2). Камилова С.Э. XX аср охири – XXI аср бошлари рус ва ўзбек адабиётида ҳикоя жанри поэтикасининг ривожи. Филол. фанл. д-ри дисс. автореф., Тошкент, 2016.

(3). Кипкеева Р.Э. Проблема природы и человека в Севернокавказской литературе: влияние литературных традиций и национальное своеобразие. Автороф. дисс. на соис.канд. филол.наук, Майкоп, 2020.

(4). Тошпўлатов А. Шукур Холмирзаевнинг новеллистик маҳорати. www.journal.flesu.uz. Илмий-методик электрон журнал.

(5). 구모룡, “구체적인 삶에 대한 성실한 관찰”, “문학사상”, 1989.

(6). 양귀자, 원미동 사람들, – 서울, 2012.

(8). http://www.gender.cawater-/

**Sarodbekov Sherzodbek Saforboyevich (Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi;**
**e-mail: sherzodbeksardorbekov@gmail.com)**

## BADIIY MATN MAZMUNINING BUTUNLIGINI TA’MINLASHDA TARJIMA TRANSFORMATSIYASINING O‘RNI

***Annotatsiya.*** *Badiiy tarjima bir tilda yaratilgan matni estetik mazmuniga zarar yetkazmasdan tarjima tilida qayta yaratish jarayonidir. Ma’no va mazmun butun bo‘lishi uchun tilning ma’no anglatuvchi qurilmalari o‘zaro hamohanglik kasb etishi lozim. Tarjima jarayonida qatnashayotgan tillar turli oilalarga mansubligi tufayli asliyat tilining grammatik qurilmalari va lisoniy birliklari hamohangligida yuzaga kelgan ma’noni boshqa tilda ham ayni shu qurilma hamda lisoniy birliklar bilan berishga urinish matn mazmuniga jiddiy zarar yetkazadi. Ayni shu muammolarni bartaraf etish uchun tarjimashunoslikda tarjima transformatsiyasi qo‘llaniladi. Tarjima transformatsiyasi ustida dunyoning bir qancha ko‘zga ko‘ringan olimlari o‘z fikr-mulohazalarini bildirlishgan va uni turli guruhlarga bo‘lishgan. Shunday bo‘lsa ham, olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar barcha tillarga birdek tatbiq qilish imkonini misollar bilan atroflicha tekshirish zarur. Quyidagi maqolada E.Xemingueyning “To have or have not” asari va uning o‘zbek tilidagi “Borliq va yo‘qlik” nomli tarjimasida foydalanilgan transformatsiyalar tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *badiiy tarjima, transformatsiya, grammatik tranformatsiya, leksik transformatsiya, umumlashtirish, konkretlashtirish, antonimik tarjima, qo‘shish, tushurib qoldirish.*

**Сародбеков Шерзодбек Сафорбоевич (преподаватель Ургенчского государственного университета)**

## РОЛЬ ПЕРЕВОДЧЕСКИХ ТРАНСФОРМАЦИЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЦЕЛОСТНОСТИ СОДЕРЖАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА

***Аннотация.*** *Художественный перевод представляет собой процесс воссоздания текста, созданного на одном языке, на языке перевода без ущерба для его эстетического содержания. Чтобы смысл и содержание текста оставались целостными, семантические конструкции языка должны сохранять гармонию и согласованность. Поскольку языки, участвующие в процессе перевода, принадлежат к разным семьям, попытки передать возникающий смысл с использованием тех же грамматических конструкций и языковых единиц могут нанести серьёзный ущерб содержанию текста. Для решения таких проблем в переводоведении используется трансформация перевода. Многие выдающиеся учёные мира высказывали свои мнения по поводу трансформации перевода и классифицировали её на различные группы. Теории, разработанные учёными, необходимо всесторонне изучить с использованием примеров для их применения ко всем языкам. В данной статье ана-*